



Maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik nutqni rivojlantirish texnologiyalari

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna –

Farg'ona davlat universiteti dotsent
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: md_buzrukova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

Abdullayeva Mo'tabar Muqimjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik nutq, eshitish va idrokni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik hamda logopedik texnologiyalari tadqiq etilgan. Fonematik nutq bolaning tovushlarni farqlash va ularni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati bo'lib, u nutqiy nuqsonlarning ya'ni dislaliya, dizartriya oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik nutqni rivojlantirish masalasi kelgusida savod o'rganish jarayoni bilan chambarchas bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fonematik nutq, fonematik idrok, logopedik texnologiyalar, nutq o'stirish, savod o'rgatish, nutqiy nuqsonlar, interaktiv o'yinlar.

Технологии развития фонематической речи у детей дошкольного возраста

Аннотация. В данной статье исследуются современные педагогические и логопедические технологии развития фонематической речи, слуха и восприятия у детей дошкольного возраста. Фонематическая речь рассматривается как способность ребёнка различать звуки и правильно их произносить, что играет важную роль в профилактике речевых нарушений, таких как дислалия и дизартрия. Проанализирована взаимосвязь развития фонематической речи у дошкольников с процессом последующего обучения грамоте.

Ключевые слова: фонематическая речь, фонематическое восприятие, логопедические технологии, развитие речи, обучение грамоте, речевые нарушения, интерактивные игры.

Technologies for developing phonemic speech in preschool children

Annotation. This article explores modern pedagogical and speech therapy technologies for developing phonemic speech, hearing, and perception in preschool children. Phonemic speech is considered the child's ability to distinguish sounds and pronounce them correctly, which plays an important role in preventing speech disorders

such as dyslalia and dysarthria. The relationship between the development of phonemic speech in preschool children and the subsequent process of literacy acquisition is analyzed.

Keywords: *phonemic speech, phonemic perception, speech therapy technologies, speech development, literacy teaching, speech disorders, interactive games.*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiyatining shakllanishida mukammal nutqiy rivojlanish yetakchi o'rin tutadi. Nutq nafaqat aloqa vositasi, balki bolaning intellektual salohiyati va ijtimoiy moslashuvini belgilovchi asosiy omildir. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yiladigan davlat talablarida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ularning bog'lanishli nutqini va tovushlar madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining to'laonli rivojlanishi ko'plab tarkibiy qismlarning uyg'un shakllanishiga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri fonematik nutq va fonematik idrok hisoblanadi. Nutqning fonetik-fonematik tomoni bolaning og'zaki nutqni to'g'ri idrok etishi, tovushlarni farqlashi, ularni to'g'ri talaffuz qilishi hamda kelgusida o'qish va yozishni muvaffaqiyatli egallashi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois logopediya fanida fonematik nutq va fonematik idrok tushunchalari alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi va mazkur masala ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Fonematik nutq tushunchasi, avvalo, til tizimidagi fonema kategoriyasi bilan bevosita bog'liqdir. Fonema tilning eng kichik ma'no farqlovchi birligi bo'lib, u so'zlarning ma'nosini ajratish vazifasini bajaradi. R.E.Levina ta'kidlaganidek, fonematik nutq bu tovushlarni shunchaki talaffuz qilish emas, balki ularni ongli ravishda farqlash, tahlil qilish va nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Demak, fonematik nutq bolaning nutq faoliyatida fonemalarning to'liq va ongli o'zlashtirilishini anglatadi[1]. Fonematik idrok esa fonematik nutqning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u eshituv orqali nutq tovushlarini farqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini anglay olish qobiliyatini ifodalaydi. D.B. Elkonin fonematik idrokni "so'z tarkibidagi tovushlarni eshitish va ularni bir-biridan ajrata olishga qaratilgan maxsus eshituv faoliyati" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, fonematik idrok rivojlanmagan sharoitda bola tovushlarni mexanik takrorlashi mumkin, biroq ularni nutqiy birlik sifatida ongli idrok eta olmaydi[2]. Nutqi yaxshi rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketadi, o'z fikrini va istagini tushunarli tarzda bayon etadi, o'rtoqlari bilan birgalikda o'ynaydigan o'yinlari haqida darrov kelishib oladi. Aksincha, tushunarsiz nutq o'zaro munosabatni qiyinlashtiradi, bola xarakterida salbiy xususiyatlarning (odamovi, indamas, qo'rqq) vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bolalar o'zbek tilidagi tovushlarni asta-sekin o'zlashtiradilar. Maktabgacha tarbiya yoshining boshida bolaning nutq apparati shakllanib boradi (kattalarning nutq a'zolaridan biroz farq qiladi), fonematik eshituv qobiliyati yaxshi ishlaydi. Shu bilan bir qatorda, har qaysi yosh davridagi bolalarda nutqning tovush madaniyati sohasida o'ziga xos kamchiliklar mavjuddir. Bolalarga ona tilini o'rgatish bo'yicha ishlar tizimida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola o'zbek tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, maxsus faoliyatda va erkin muloqotda yetarli ovoz kuchida javob berishga, shoshilmasdan, ifodali gapirishga o'rganadi, bu ishlar qancha erta boshlansa, shuncha katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Logopediya amaliyotida fonematik nutq va fonematik idrokning yetarli darajada rivojlanmaganligi ko'pincha fonetik-fonematik nutq buzilishlari bilan namoyon bo'ladi. T.B.Filicheva va G.V.Chirkina tadqiqotlarida qayd etilishicha, bunday bolalarda tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, noto'g'ri farqlash holatlari tez-tez uchraydi. Bu holatlar

bolaning nutqini tushunarligini pasaytiradi va muloqot jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi[3].

Fonematik idrok rivojlanishining muhim jihatlaridan biri tovushlarni ketma-ketlikda ajrata olishdir. R.E.Levina fonematik idrokni rivojlantirish jarayonida dastlab nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlash, so'ng nutq tovushlarini ajratish, undan keyin esa tovushlarni so'z tarkibida aniqlash bosqichlari ketma-ket amalga oshirilishini ta'kidlaydi.[4] Bu bosqichma-bosqichlik tamoyili maxsus maktabgacha ta'lim amaliyotida muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Fonematik nutqning rivojlanishi bolaning so'z boyligi va grammatik tuzilmani o'zlashtirish jarayoni bilan ham uzviy bog'liqdir. Nutq tovushlarini to'g'ri idrok eta olgan bola so'zlarni aniq eshitadi, ularning ma'nosini to'g'ri anglaydi va nutqda faol qo'llay boshlaydi. Aksincha, fonematik idrok yetarlicha shakllanmagan bolalarda so'zlarni noto'g'ri tushunish, lug'at boyligining asta-sekin kengayishi kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik nutqni rivojlantirish masalasi kelgusida savod o'rganish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli fonematik idrokni rivojlantirish maktabgacha ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston logopediya va maxsus pedagogika sohasida ham fonematik nutq va fonematik idrok masalalari alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganilgan. Mahalliy olimlar bolalar nutqining fonetik-fonematik tomonini rivojlantirishni maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida baholaydilar. Xususan, M.Y. Ayupova o'zining logopediya sohasidagi tadqiqotlarida fonematik idrokni bolaning nutqiy rivojlanishida markaziy omil sifatida ko'rsatib, uni "nutq tovushlarini farqlash orqali so'zning tovush tarkibini ongli idrok etish qobiliyati" deb ta'riflaydi. Olimaning fikricha, fonematik idrok yetarli darajada shakllanmagan bolalarda tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni chalkashtirish va nutqning tushunarligi pasayishi kuzatiladi[5]. O'zbek olimlaridan L.R.Muminova maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ishlarida fonematik idrokni savod o'rganishning zaruriy sharti sifatida ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, bola tovushlarni eshitib farqlay olmas ekan, ularni yozuv belgilariga bog'lash jarayoni qiyinlashadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim bosqichidayoq fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilishi lozimligini ta'kidlaydi[5]. Shuningdek, N.X.G'afurova tadqiqotlarida fonematik nutqning rivojlanishi bolaning umumiy nutq madaniyati va lug'at boyligi bilan uzviy bog'liq ekanligi ilmiy asosda isbotlanadi. Olimaning fikriga ko'ra, fonematik nutqi yetarli darajada shakllangan bola nutqida tovushlar aniq talaffuz qilinadi, so'zlarning tovush tarkibi buzilmaydi va muloqot jarayonida nutq ravonligi ta'minlanadi. Bu holat maktabgacha yoshdagi bolalarda bog'langan nutqni shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.[5]

O'zbek tilshunos va metodist olimalaridan biri Q.Qosimova fonetik-fonematik mashqlar orqali bolalarning nutqiy sezgirligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tovushlarni farqlashga qaratilgan mashqlar bolalarning nafaqat talaffuzini, balki so'z ma'nosini anglash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shu bois olim Q. Qosimova fonematik idrokni shakllantirish jarayonida tovush, bo'g'in va so'z ustida olib boriladigan mashqlarning izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishini muhim metodik talab sifatida ko'rsatadi[6]. Maxsus pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlarda S.M. Karimova fonematik idrokning yetarli rivojlanmasligi keyinchalik disleksiya va disgrafiya kabi o'qish-yozuv buzilishlariga olib kelishi mumkinligini qayd etadi. Olimaning ta'kidlashicha, fonematik idrokni maktabgacha yoshda rivojlantirish orqali ikkilamchi nutq buzilishlarining oldini olish mumkin. Shu sababli logopedik mashg'ulotlarda fonematik eshituvni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'zbek olimlarining ushbu ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, fonematik nutq va fonematik idrok masalasi nafaqat umumiy logopediya nazariyasida, balki milliy pedagogika va maxsus ta'lim amaliyotida ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi. Mahalliy tadqiqotchilar fikrlarida ham klassik rus logopediyasi bilan mushtarak jihatlar mavjud bo'lib,

ularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik jarayonlarni erta va tizimli rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fonematik nutq – tovushlarni eshitish, ajratish va idrok etish, muvaffaqiyatli savod o'rgatishning poydevori hisoblanadi. Agar bolada maktabgacha yosh davrida ya'ni 3–7 yoshda ona tilidagi tovushlarni bir-biridan farqlash ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanmasa, bu keyinchalik maktabda yozma nutq nuqsonlariga olib keladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari o'rtasida fonematik idrokning sustligi va nutqiy nuqsonlarning ko'p kuzatilayotgani, ushbu jarayonda an'anaviy metodlardan voz kechib, yangi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda.

Metodologik nuqtayi nazardan, 5-6 yoshli bolalar bilan olib boriladigan fonematik nutqni rivojlantirish ishlari ko'proq o'yin faoliyatiga tayanilganda ijobiy natijani beradi. O'yin shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning yosh psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularning qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi. Tovushlarni farqlash, bir xil yoki o'xshash tovushlarni ajratish, tovush ishtirok etgan so'zlarni topish kabi topshiriqlar o'yin ko'rinishida berilganda yanada samaraliroq natija beradi. Shu bilan birga, metodik yondashuvda ko'rgazmalilik va takroriylik tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim[7]. 5-6 yoshli bolalarda fonematik nutq rivojlanishining metodologik xususiyatlaridan yana biri individual yondashuv zaruratidir. Har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasi, tovushlarni idrok etish va talaffuz qilish imkoniyatlari bir xil bo'lmaydi. Shu sababli logopedik va pedagogik ishlar bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Ayrim bolalarda tovushlarni farqlash qobiliyati tez shakllansa, boshqalarda bu jarayon sekinroq kechishi mumkin. Metodik ishlarni moslashtirish orqali fonematik nutq rivojlanishida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Metodologik jihatdan qargalganda, 5–6 yoshli bolalarda fonematik nutqni rivojlantirish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir asosida tashkil etilishi lozim. Ushbu yoshda bolalarning diqqatini uzoq vaqt bir obyektga jamlash qiyin bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar qisqa, mazmunli va qiziqarli bo'lishi zarur. Tovushlarni farqlashga oid mashqlarni ketma-ket va murakkablashtirib borish metodik jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Masalan, dastlab alohida tovushlarni farqlash, keyinchalik esa tovushlarni so'z tarkibida aniqlashga o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, 5-6 yoshli bolalarda fonematik nutqni rivojlantirishda takroriylik va mustahkamlash metodik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Tovushlarni bir martalik mashq orqali emas, balki turli vaziyatlarda, turli mashg'ulotlarda qayta-qayta qo'llash orqali mustahkamlash lozim. Takroriy mashqlar orqali bola tovushlarni barqaror idrok etishga, ularni nutqda to'g'ri va ongli qo'llashga odatlanadi. Bu holat fonematik nutq rivojlanishining barqarorligini ta'minlaydi.[7]

Metodologik xususiyatlardan yana biri – tizimlilikdir. Fonematik nutqni rivojlantirish ishlari tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan, izchil tizim asosida olib borilishi kerak. Tovushlarni farqlashga oid mashqlar, so'z ustida ishlash, tovushlarning ketma-ketligini aniqlash kabi faoliyatlar o'zaro bog'liq holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Tizimli yondashuv fonematik nutqni rivojlantirish jarayonida uzilishlarning oldini oladi va bolada mustahkam fonematik ko'nikmalarni shakllantiradi. 5-6 yoshli bolalarda fonematik nutq rivojlanishining metodologik jihatlari orasida individual yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar tovushlarni tez va oson farqlay olsa, boshqalarida bu jarayon murakkabroq kechadi. Shu sababli metodik ishlar bolalarning individual nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Individual yondashuv orqali fonematik nutq rivojlanishida tenglik ta'minlanadi va har bir bola o'z imkoniyatlari doirasida ijobiy natijaga erishadi. Ushbu yoshda bolaning nutqini rivojlantirishda vizual yordamchilar juda muhim. Masalan, tovushlarning qayerda hosil bo'lishini tushunish uchun artikulyatsiya a'zolarining tuzilishini bilish foydali:

Bu yoshda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. Tovushlarni harf bilan bog'lash: Faqat eshitish emas, balki tovushning yozma shakli (harf) bilan tanishtirishni boshlash.

2. So'z o'yinlari: "Qaysi so'zda 'S' tovushi bor?" kabi savollar orqali fonematik idrokni charxlash mumkin.

3. Artikulyatsion gimnastika (Nutq a'zolarini chiniqtirish)

Tovushlarni to'g'ri chiqarish uchun til va lab mushaklari egiluvchan bo'lishi kerak. Bu jarayonda turli didaktik o'yilar samarali natija beradi. Masalan;

- ✓ "To'siqlar" o'yini: Bola tilini yuqori tishlari orqasiga yashirib, "L" yoki "R" tovushlariga zamin tayyorlaydi.
- ✓ "Dombira": Og'izni ochib, til uchi bilan yuqori tishlar orqasiga urib "d-d-d-d" deyish (bu "R" tovushini chiqarish uchun eng yaxshi mashq).
- ✓ "Shirin murabbo": Til bilan lablarni aylantirib yalash.

Fonematik eshitishni rivojlantirish (tovushni farqlash) Bola tovushni nafaqat eshitishi, balki uni boshqa tovushlardan ajrata olishi kerak.

- "Qarsak" o'yini: Siz bir qator tovushlarni aytasiz (masalan: S, Z, Sh, S, Ts, S). Bola faqat "S" tovushini eshitganda qarsak chalishi kerak.

- "Yanglish so'zni top": Siz ataylab so'zni noto'g'ri aytasiz, bola xatoni topishi kerak. (Masalan: Banan – Panan – Banam – Banan).

- "Juft so'zlar": Ma'nosi yaqin, lekin bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni ko'rsating (Masalan: Ol – Bol, Shoh – Choh, Gul – Kul).

Tovushli tahlil va sintez (Maktabga tayyorgarlik) 5-6 yoshda bola so'zning "ichki tuzilishini" ko'ra olishi lozim.

1. "Tovush ovchisi": "Kitob" so'zida birinchi tovush qaysi? Oxirgisi-chi? O'rtasida qaysi tovush bor?

2. "So'z yasash": Siz tovushlarni alohida aytasiz: "M", "A", "K", "T", "A", "B". Bola ularni birlashtirib "Maktab" deyishi kerak.

3. "Uychalar": So'zda nechta bo'g'in borligini aniqlash (qarsak bilan: Mak-tab — 2 ta qarsak).

5-6 yoshli maktabgacha bolalarda fonematik nutq rivojlanishining yosh va metodologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilgan pedagogik ishlar bolaning nutqiy yetukligini ta'minlaydi. Ushbu davrda fonematik nutqni rivojlantirishga yetarli e'tibor berish maktabga tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi bo'lib, kelgusida o'qish va yozish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda fonematik qobiliyatlar bolaning nutqiy va kognitiv rivojlanishida markaziy omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu qobiliyatlarning rivojlanishini chuqur anglash uchun psixolingvistik va neyropsixologik yondashuvlarning uyg'unligi zarur. Psixolingvistika fonematik qobiliyatlarni nutqni idrok etish va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilsa, neyropsixologiya ushbu jarayonlarning markaziy asab tizimidagi funksional mexanizmlarini ochib beradi.

Fonematik qobiliyat tushunchasining psixolingvistik talqini psixolingvistika fanida nutqning eng quyi, biroq eng muhim darajasi sifatida qaraladi. Bu qobiliyat bolaning nutq tovushlarini fonema sifatida ajrata olishi, ularni o'zaro taqqoslab, minimal farqlarni anglay olishi va nutq jarayonida ongli qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, fonematik qobiliyat nutqni tushunish jarayonining poydevorini tashkil etadi, chunki tovushlarni noto'g'ri idrok etish so'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keladi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, fonematik ong bolalarning nutq madaniyatida muhim ahamiyatga ega; bu ko'nikma o'qish ko'nikmalarining mustahkam poydevorini yaratadi. Logopediyaning an'anaviy yondoshuvi fonematik eshitishni shakllantirish uchun didaktik o'yinlar – masalan, "Qaysi tovushni eshityapsan?", "Tovushni top", "So'z qur" kabi

usullardan keng foydalanadi. Bunday o‘yinlar bolalarni faol tinglash, qiziqish bilan jalb qilish va fantaziyani rag‘batlantirish orqali nutqiy xotira va eshitish fonematik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.[7]

Klassik didaktik o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalar – klassik logopedik o‘yinlar samarali bo‘lishi uchun ular ertakdan emas, dastlab shriftli (so‘zli) materiallar bilan o‘zaro integratsiyalangan bo‘lishi kerak. Masalan, harflar va tovushlar kombinatsiyasini o‘yinga qo‘shib beruvchi “So‘z qur” yoki tushirilgan tovushlarga mos harf tanlash kabi mashg‘ulotlar aynan fonematik ongni mustahkamlaydi. Hozirgi kunda bunday didaktik yondashuv interfaol texnologiyalar bilan to‘ldirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fonematik nutq va fonematik idrok tushunchalari logopediya fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, ular maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining to‘laqonli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalarning ilmiy-nazariy mohiyatini chuqur o‘rganish maktabgacha ta‘lim tizimida fonematik nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Fonematik nutq va fonematik idrok – bolalarning til mahorati uchun asosiy komponentlar bo‘lib, ular nutqdagi tovushlar tizimini anglash hamda talaffuz qilish imkonini beradi. Klassisizm nuqtayi nazardan Elkonin, Levina, Filicheva kabi olimlar bu tushunchalarni har tomonlama yoritganlar. Elkonin «fonematik idrok» atamasini kiritib, uni fonemalarni farqlash asosidagi ongli faoliyat deb ta‘riflagan bo‘lsa, Levina esa bolaning fonematik rivojlanishi va uning bosqichlari haqida ilmiy-nazariy asos yaratib, 4-5 yoshda fonematik idrok normal darajada shakllanishini qayd etgan.[8] . Aynan shu yondashuvlar fonematik jarayonlar bolaning nutqini va savodxonligini rivojlantirishda qancha muhimligini tushunishga yordam beradi. Zamonaviy psixolingvistika va neyropsixologiya tadqiqotlari esa tovushlarni idrok etish va ishlab chiqarishdagi ruhiy va nevrologik mexanizmlarni ochib, bu jarayonlarni yanada chuqurroq anglashni ta‘minlaydi. Shu tariqa, fonematik nutq va fonematik idrok tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyati bolalarning nutq va o‘qish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot va amaliyotlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, 5-6 yoshli bolalarda fonematik nutq rivojlanishi — bu murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, u eshitish diqqati, xotirasi va tahliliy tafakkurning uzviy bog‘liqligini talab etadi. 5–6 yoshli maktabgacha bolalarda fonematik nutq rivojlanishining yosh va metodologik xususiyatlari ushbu davrni fonematik jarayonlarni shakllantirish uchun eng muhim bosqich sifatida belgilaydi. Aynan shu yoshda fonematik nutqni izchil va ilmiy asoslangan metodlar yordamida rivojlantirish bolaning maktabga nutqiy jihatdan tayyor bo‘lishini ta‘minlaydi, nutq buzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi va keyingi ta‘lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qish uchun mustahkam zamin yaratadi. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan artikulyatsion o‘yinlar va fonematik mashqlar bolaning maktab ta‘limiga muvaffaqiyatli moslashishini ta‘minlovchi eng asosiy omildir. Nazariy va metodologik tahlil shuni tasdiqlaydiki, 5-6 yoshli bolalarda fonematik nutqni rivojlantirish murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, u bolaning maktab ta‘limiga tayyorgarlik darajasini belgilab beradi. Shu bois Tarbiyachi har bir bolaning nutq holatini kundalik kuzatishlarining natijalari asosida o‘rganib, ularning nutqlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar nutqining holatlari jiddiy tahlil qilinishi shart. Chunki, fonematik idrokning shakllanishi bolada nafaqat to‘g‘ri talaffuzni, balki nutq madaniyatini, lug‘at boyligini va mantiqiy tafakkurini ham yuksaltiradi. Shu sababli, ushbu yosh davrida milliy va zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan (o‘yinlar, ertaklar, mnemojadvallar) foydalangan holda tizimli ish olib borish metodologik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Takliflar sifatida quyidagilarni keltirish lozim;

1. MTT dagi nutq o'stirish mashg'ulotlarida har kuni 5-7 daqiqali "Fonematik daqiqalar" orqali didaktik o'yinlar blokini majburiy tartibda joriy etish;

2. Bolalarning eshitish sensor tizimini faollashtirish uchun logoritmika ya'ni musiqa, harakat va nutq sintezi elementlaridan kengroq foydalanish;

3. Nutqida og'ir nuqsonlari bor masalan, alaliya, dizartriya bolalar uchun maxsus surdopedagogik va logopedik mnemotexnik kartochkalar bazasini yaratish hamda individual yondashuvni ta'minlash.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda intonatsion ifodalilik, temp, talaffuz va fikrni bayon qilishning ravonligi ustida ishlashga ko'proq ahamiyat berish darkor, zero, ravon nutqning shakllanishi ushbu ko'nikmalarga asoslanadi. Tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi. Nutqning tovush madaniyati fonematik qabul qilishni, nutqning talaffuz va ifoda jihatlarini rivojlantirishni talab etadi. Shuning uchun artikulyatsiya va akustika jihatidan yaqin tovushlarni (qattiq va yumshoq, jarangli va jarangsiz, shuvulloqchi, sonor) eshitishda ajrata olish va uni to'g'ri talaffuz etish qobiliyatini rivojlantirib boorish zarur. So'zlardagi, tez aytishlardagi, qisqa she'rlardagi tovushlardan to'g'ri foydalanishni mashq qildirish kerak. Ifoda, intonatsiya sur'ati va balandligini beixtiyor tartibga solishni o'rgatish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: 2011.
2. Muminova L. Logopediya. – Toshkent: 2013.
3. Nurkeldiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: 2021.
4. Usmonova O'. Talaffuz madaniyati. – Toshkent: 2020.
5. Djamolova L. Logopedik yordam va uning metodikasi. – Toshkent: 2018.
6. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. Yordamchi maktablar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2013.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2021.